# ANTONOMAZIYA MUSTAQIL STILISTIK USLUB SIFATIDA

**Axmatoxunova Maftuna Akmal qizi**
Andijon davlat chet tillari instituti mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya**

Mazkur maqola antonomaziyaning mustaqil stilistik usul sifatidagi o‘rnini tadqiq qilishga bag‘ishlanadi. Stilistik usullar orasida antonomaziya o‘zining semantikasi va emotsional-ekspressiv bo‘yoqdorligi bilan alohida ajralib turib, u yozuvchilar tomonidan badiiy asarlarda ismlarni ma’noli tarzda ifodalash orqali amalga oshiriladi.

**Kalit so‘zlar:** antonomaziya, “ma’nodor” ism, tavsiflovchi (xarakteristik) vazifa, emotsional vazifa, stilistik ta’sir, polifunksional xususiyat.

Antonomaziyani tilning mustaqil stilistik usuli sifatida ajratib ko‘rsatish uchun, avvalo, ushbu hodisaning stilistik tabiatini belgilovchi o‘ziga xos belgilarni aniqlash talab etiladi. Shu bois antonomaziyani uch nuqtayi nazardan ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

1) antonomastik so‘zning tuzilishi nuqtayi nazaridan;
2) uning ma’nosi (semantikasi) nuqtayi nazaridan;
3) antonomastik birlik bajaradigan stilistik vazifa nuqtayi nazaridan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobida antonomaziyaning aynan stilistik vazifa bilan bog‘liq jihatlari tahlil qilinadi. Ta’kidlash lozimki, tilda antonomaziya alohida stilistik usul sifatida faqat ushbu vositaning stilistik vazifalari yetarli darajada to‘liq aniqlanib, o‘z qo‘llanilishiga ko‘ra odatiy holga aylanganda-gina namoyon bo‘lishi mumkin [1; 5].

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, antonomaziya shakl, mazmun va emotsional-bo‘yoqdorligi jihatidan ham nihoyatda rang-barang hodisadir. U adabiy matnda turli stilistik vazifalarni bajaradi va shu orqali o‘quvchiga obrazli hamda emotsional ta’sir ko‘rsatadi. Shu nuqtayi nazardan mazkur bobning asosiy vazifasi antonomaziyaning stilistik vazifalarini tahlili davomida ular uchun eng odatiy bo‘lgan o‘ziga xos jihatlarini to‘laroq tahlil qilish va ochib berishdan iborat.

Antonomaziyaning stilistik xususiyatlari tahlili quyidagicha amalga oshiriladi:

1. Stilistik vazifa tushunchasini aniqlash va shu asosda antonomaziyaning asosiy stilistik vazifalarini ajratib olish.

2. Antonomaziyaning asosiy stilistik vazifa va xususiyatlarini ochib berishga xizmat qiluvchi stilistik usullarni aniqlash. Chunki, “ma’nodor” ismlarning stilistik jihatdan qo‘llanilishi ijodkorning mahoratiga bog‘liq bo‘lib, ularning ishlatilish usullari, maqsadi va vazifalari turlicha bo‘lishi mumkin. Ko‘pincha, ismning ma’nosi makrokontekstda-gina ochiladi, biroq ba’zan bitta gap bilan chegaralangan mikrokontekstda ham namoyon bo‘lishi mumkin.

3. Antonomaziyaning asosiy stilistik vazifalarini ajratish ushbu stilistik usulning negizida yotuvchi lingvistik xususiyatlarni hisobga olish asosida amalga oshiriladi. Natijada, antonomaziyaning ikki asosiy stilistik vazifasi namoyon bo‘ladi: 1) tavsiflovchi (xarakteristik) vazifa; 2) emotsional vazifa.

Mazkur tahlil I.Galperinning stilistik funksiya borasidagi “til faktining maqsadli qo‘llanishi va u orqali muayyan stilistik effektni yuzaga keltirishga qaratilgan hodisa[1; 5]” sifatidagi talqiniga tayangan holda olib borildi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan antonomaziyaning vazifalari ushbu stilistik usulning til tizimidagi mavjud imkoniyatlarini aslo cheklab qo‘ymaydi. Har qanday emotsional ta’sirga ega stilistik vosita kabi, antonomaziya ham polifunksional xususiyatga ega bo‘lib, bir paytning o‘zida bir nechta vazifani o‘zida mujassamlashtirishi mumkin (tavsiflovchi, baholovchi va boshqa vazifalarni). Badiiy adabiyotda ushbu funksiyalarning qaysi biri ustun ekanini

qat'iy belgilash mushkul. Biroq, muhim jihat shundaki, ularning har ikkisi ham muayyan janrga mansub badiiy matn tilida nihoyatda faol namoyon bo'ladi [2; 27].

Antonomaziyaning xarakteristik xususiyati deganda, antonomaziya sifatida qo'llanilgan ism(lar)ga xos bo'lgan biror sifat-belgini tavsiflash (xarakterlash) imkoniyati tushuniladi. Antonomaziyaning birinchi va asosiy vazifasi ushbu stilistik usulning lingvistik tabiatidan kelib chiqqan holda tanlanadi. Bir tomondan, muayyan shaxsni real voqelikdagi tushuncha, sifat yoki predmetni ifodalovchi so'z yoxud so'z birikmasi orqali nomlash orqali amalga oshirilsa, ikkinchi tomondan, antonomastik birlikning badiiy asar kontekstida qo'shimcha semantik-mazmuniy nozik farqlarni (nyuanslar) paydo qilish qobiliyati hisobga olinadi.

Antonomaziyaning tavsiflovchi xususiyati eng ko'p uchraydigan (eng umumiy) funksiyalardan hisoblanib, ushbu vazifa doirasida antonomaziya stilistik usul sifatida laqablar hamda real onomastik kategoriyalarga yaqin turadi. Tavsiflash usuli – bu antonomaziya stilistik usuli sifatida qo'llanilgan ismni oddiy, tilda faqat nominativ vazifani bajaradigan ismdan ajratib turuvchi boshlang'ich (birlamchi) va farqlovchi belgi hisoblanib, bunday oddiy ismda shaxsni baholovchi element mavjud bo'lmaydi. Aksincha, boshqa holatda esa "ma'nodor" ism – antonomaziyadir. U hatto ingliz familiyalariga xos tipik morfologik belgilar (Baker, Figs, Baggs va boshq.) saqlangan taqdirda ham, shaxsni tavsiflash vazifasini bajaradi. Demak, antonomaziyaning tavsiflovchi vazifasi laqablarning (real onomastik kategoriyaning) insonni tavsiflovchi asosiy xususiyatini ataylab bir xillikka keltirishdan (umumiy qolipga solish) iborat.

"Ma'nodor" ismning shaklini (ya'ni shu birlikning ingliz onomastikasidagi so'z yasalish modeli bilan mos kelishini) ko'rsatuvchi misol sifatida badiiy matndan quyidagi holatni keltirish mumkin [3]:

Dawkins (otherwise the Artful Dodger), who had followed his venerable friend into the room hastily deposited on the floor a bundle with which he was laden. Tavsiflash vazifasini tahlil qilish antonomaziyaning aniq nutqiy vaziyatdagi mazmunini ochib berish uchun zarur bo'lgan asosiy "kalit-usullar"ni ajratib ko'rsatish imkonini beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Galperin I.R. Ingliz tili stilistikasi bo'yicha ocherklar. M., 1958. – 151 b.
2. Kurilovich E. Tilda atoqli otning o'rni. "Lingvistika bo'yicha ocherklar" to'plami. M., 1956. – 254 b.
3. Dickens Ch. Oliver Twist. Quyidagi elektron manzil orqali: https://e-school.kmutt.ac.th/elibrary/Upload/EBook/DSIL_Lib_E1312881157.pdf